

## **VARVARLAR KIMLAR?**

«Varvar» nomi Qadimgi Yunonistonda kelib chiqqan. Yunonlar o'zlari yaratgan barcha narsa, shu jumladan til ham eng yaxshisi deb ishonardilar. Shu bois yunon tilini bilmaydigan barcha yot kishilarni varvarlar, ya'ni go'ldirovchilar deb atashardi. Qadimgi rimliklar ham qadimgi yunonlardan shu nomni o'zlashtirganlar. Eramizdan avvalgi I asrda Rim imperiyasining chegarasi bo'lib qolgan mudofaa devori olinganda, undan tashqarida yashaydigan barcha xalqlarga varvarlar degan nom berilgan.

Bular, avvalo, german qabilalari, shuningdek, keltlar va slavyanlar edi. Ular keng hududlarda yashashar va dehqonchilik, chorvachilik, turli metallarni eritish bilan shug'ullanishardi.

Bu qabilalar o'z mehnati bilan yaratgan mahsulotlarni Rim imperiyasining chegaradosh shaharlariga olib kelishar, u yerda qullarga, zeb-ziynat buyumlariga, qurol-yaroqqa, sharob va ziravorlarga almashishardi.

Rimliklar varvarlarning jasurligini va qurol ishlatish mahoratini qadrlashardi. Ozod varvar erkaklar Rim armiyasiga kirishi mumkin edi. Ma'lum vaqt o'tgach, rim jamoasida

yaxshi ma'lumotli boy varvarlar ham yetishib chiqqanlar, ular hatto imperator saroyida muhim lavozimlarni ham egallaganlar.

Varvarlar o'z davri madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatishgan. Ularning kiyim-kechaklari, soch turmaklashlari ko'pincha keng tarqalib ketardi. Imperator Mark Avreliy Antoniy Karakalla nomi bilan tarixda qolgan. Uning varvarlar kiyimiga o'chligi shunday laqab berilishiga sabab bo'lgan (germanlar uzun plashchni karakalla deb atashardi).

Rim imperiyasi barham topgach, varvarlarning holi ne kechgan? Oddiy xalq yangi hukmdorlar hukmi ostida qolgan, Rim aslzodalari esa kechagina o'zlari nafratlanib, varvarlar debu atagan kishilarga xizmat qila boshlashgan. Avvalgi varvarlarning antik shaharlarni nafrat bilan «tilla suvi yuritilgan maqbara» deb atagan farzandlari va nevaralari esa dabdabada qolishmaydigan poytaxtlar, qal'alar, saroylar qura boshlashgan. Varvarlar shu tariqa varvarlikdan chiqishgan.

## **RIMDA NASRONIYLIKNI KIM JORIY QILGAN?**

Chet mamlakatlardagi har qanday din ham rimliklarga yoqavermas edi. Masalan, ular Britaniya va Galliyada mavjud bo'lgan, odamlarni qurbonlik qiladigan druidlar dinini ta'qib etishardi. Rim bir necha bor urush olib borgan Yahudodan nasroniylik imperiyaga yashirin kirib kela boshladi. Ma'murlar nasroniylarni ta'qib etishar hamda ularni amfiteatrda ommaviy qirg'in qilishni tez-tez uyushtirib turishardi. Shunga qaramay, nasroniylik yashovchan bo'lib chiqdi hamda eramizning 313- yilida imperator Konstantin uni Rimning rasmiy dini sifatida e'lon qildi. Biroq ko'plab rimliklar, avvalgidek, majusiy ma'budlarga sig'inishardi.

Qachonlardir ilk nasroniylar o'zlari nafratlangan Rim imperiyasini uning madaniyati bilan birga yakson etishni orzu qilishgandi. Endilikda ma'lum bo'lishicha, yovvoyi qabilalar hujumi paytida nobud bo'layozgan antik sivilizatsiyadan ko'p narsani saqlab qola olgan kuch ayni nasroniylik bo'lgan ekan. German qabilalaridan birontasining nasroniylikka kirishi ertami-kechmi bu qabilada G'arb cherkovi tili — lotin tilini biladigan, diniy kitoblarni o'qiy oladigan, rim raqamlarini, rim kalendarini va hatto huquqini biladigan kishilar paydo bo'lishini bildirardi. Lotin Bibliyasini, oz bo'lsa-da, tushunish uchun dastavval Rim klassiklarining nasriy va nazmiy asarlari bilan tanishish zarur edi. Shu bois nasroniylar qadimgi buyuk majusiylar — Goratsiy va Ovidiy, Sitseron va Tit Liviylar asarlarini xavfsala bilan ko'chirib yoza boshlaganlar. Qadimgi rimliklarning ko'plab asarlari ayni shu ilk o'rta asrlar ko'chirmalari orqali bizgacha yetib kelgan. Ko'hna bilimlarni saqlab qolish va tarqatishdek og'ir mehnat, eng avvalo, monaxlar zimmasiga tushdi.

### **XUNNLAR KIMLAR EDI?**

Xunlar Yevropada paydo bo'lgan. Ular Osiyodan kelib, Dunay daryosining o'rta oqimi bo'ylab joylashishgan. Ularning rahnamosi Attila bo'lib, uning nomi hozirga qadar yirtqichlarcha shafqatsizlik ramzi hisoblanadi. 451- yilda Attila o'z to'dasini Galliya tomon boshlab boradi. Biroq Mauriakaga yetganda ularning yo'lini g'aroyib bir ittifoqchi qo'shin to'sib chiqadi. Ravennadan yuborilgan Rim armiyasi, Gallianing shimolidan franklar, janubdan vestgotlar va alanlar — dahshatli xavf ularni birlashtirgandi. Maruriaka yonidagi jangda Attila yengiladi va Dunay bo'yiga chekinadi.

Keyingi yili u Italiyada paydo bo'ladi. Niyati — Rimni vayron qilish edi. Konstantinopol armiyasining zarbasi xavfi hamda Rim papasi Lev I bilan uchrashuvgina uni orqaga qaytishga majbur qiladi. Bir necha oydan so'ng Attila vafot etadi va nihoyat Yevropa erkin nafas ola boshlaydi.

### **RIM QACHON YENGILGAN?**

455-yili, xunlar ketganidan bor-yo'g'i uch yildan keyin Afrikadan vandallar suzib kelishgan. Ular Rimning Shimoliy Afrikadagi barcha mulklarini bosib olishgandi, endi esa Italiyaga hujum qilib, Rimni egallashadi. Aholiga rahm qilishgan bo'lsa-da, butun shaharni talashadi. Hatto hozir ham be'mani vayronagarchiliklar to'g'risida gap borganda, vandallarni eslashadi. Vandallar tez orada Italiyani Rim imperatoriga va uning butunlay yollanma germanlardan tarkib topgan armiyasiga tashlab ketishadi. Nihoyat, 476-yili Rim imperatori Romun Avgustul german sarkardasi Odoakr tomonidan ag'darilgan va G'arbiy imperiyadan qolgan hududda Odoakr hukm yurita boshlagan.

Asrlar davomida ma'lum va mashhur mamlakatlarning deyarli hammasini boshqarib kelgan Rimning ham kuni bitadi. Eski dunyo hayotining sanoqli kunlari qolgandi, lekin uning vayronalarida yangisi vujudga kela boshladi. Yangi

Rim imperiyasining markazi Konstantinopolda edi. Lekin, eng muhimi — Rimni tiz cho'ktirgan german qabilalari o'z davlatlarini tuzib, hozirgi Yevropaga asos sola boshlagan edi.

### **VIZANTIYA RIM IMPERIYASIDAN KEYIN QANCHA YASHADI?**

V asrda Konstantinopol Bolqon yarim oroli va Yaqin Sharqda yastanib yotgan katta imperiyaning poytaxti bo'lgandi. Hatto Rim gullab-yashnagan davrda ham bu o'lkada Rim emas, yunon madaniyati ta'siri sezilib turardi. Rim imperiyasi zavol topganidan so'ng yuz yil yoki shunga yaqin vaqt o'tgach, u yerda «rim»dan asar ham qolmagandi. Boshqa mamlakatlar xalqlari Konstantinopol imperiyasi aholisini yunonlar deb atashardi. Biz uchun odatiy bo'lib qolgan Vizantiya degan nom esa Rim imperatori Konstantin tomonidan qayta qurilgan va uning sharafiga Konstantinopol deb atalgan. Qadimgi yunon shahri Vizantiyadan olingan.

Vizantiya 1453- yilga qadar mavjud bo'lgan, ya'ni Rim imperiyasidan keyin yana ming yil yashagan. Tashqaridan bo'lgan ko'pdan-ko'p zarbalarga chidashda unga nima yordam bergan? 441-va 447-yillarda Yunonistonni xunlar talagan; 460—470 yillarda ostgotlar huddi shunday xavf tug'dirgan. Hatto Vizantiya imperatori Zenon ostgotlarni uning nomidan borib Italiyani zabt etishga ko'ndirgan va bu bilan ularning Vizantiyaga siquvini zaiflashtirgan bo'lsa-da, yangi bosqinchilar — avarlar va bulg'orlar darvoza qoqa boshlagan edilar. Ular yana birnecha asrlar davomida Vizantiyaga xavf solib keldilar.

### **IISUS XRISTOS KIM BO'LGAN?**

Bibliya tarkibiga kiruvchi to'rt Yevangliye (Injil) bo'yicha Iisus Xristning boshlangich vaqti — xushxabardan tortib chormixga tortib o'ldirilgunicha hamda tirilib, arshi a'loga kutarilguniga qadar bo'lgan deyarli butun «tarjimai holi»ni tiklashimiz mumkin. Bu rivoyat ko'plab apokrifik asarlar bilan tuldiriladi.

Musulmon olamida Iso Masih nomi bilan mashhur bo'lgan Iisus Xrist siymosi hamma joyda o'zida ilohiy va insoniy tabiatni birlashtirgan Xudoodam sifatida talqin qilinadi. Boshqa afsonaviy qahramonlar tasviridan farq qiluvchi bunday tasavvurda utmish davrning turli xudolari to'g'risidagi ko'plab g'oyat qadimiy tasavvurlar aks etgan.

Shu bois ko'plao tadqiqotchilar Iisus Xristni o'lib, qayta tirilayotgan xudolar safida ko'rishadiki, bu safga misrliklarning Osirisi, yunonlarning Dionisi va skandinavlarining Baldri ham kiradi. Nasroniylarning asosiy bayramlari quyosh kalendari bilan aniq bog'liqligini ayni shu sabablar ham ko'rsatadi.

Xrist tugilgan kun 25- dekabrda nishonlanadi, ayni shu kun Quyosh qishki tengkunlikdan so'ng bahorga yuz buradi. Pasxa esa bahorgi tengkunlikdan so'ng, Quyosh bir yillik yo'lning yarmini o'tgach, nishonlanadi.

Xrist siymosida qadimgi dunyo tasavvurlari qo'shib ketgan, shu bois u ko'rsatayotgan mo'jiza turli-tuman bo'lishiga olib kelgan. Biroq dindorlar eng avvalo

e'tiqod yo'lida jonini qurbon qiladigan va bu bilan taqdirga tan berish namunasi bo'ladigan Najotkor siymosini ko'rishadi.

## **O'RTA ASRLARDA CHERKOV QANAQA BO'LGAN?**

O'rta asrlarda nasroniy missionerlar oxir-oqibatda Yevropaning eng olis chekkalarigacha yetib borishadi. Hamda Yevropaliklarni nasroniylikka kiritish bo'yicha bir necha yuz yillar davom etgan ishni poyoniga yetkazishadi. Zero, oddiy xalq nimaga e'tiqod qilganini aniq dytish qiyin. Aftidan, o'sha zamonlarda hozirgiga qaraganda ko'proq odamlar cherkovlarga muntazam qatnab, ibodat qilardilar. Cherkovlar qurilishiga va ularni bezashga pulni ham ayni shu qavmlar tuhfa sifatida berardi.

Biroq ba'zan ularning nasroniy e'tiqodlari eski majusiy tasavvurlar bilan aralashib ketardi, shu bois ular cherkov ta'limotini chalkash tushunishgandi.

O'rta asrlarda cherkovning kuchi va ta'siri katta edi. Qirollar va gersoglardan farqi shunda ediki, u o'lmas edi, shu bois uni yemirish oson kechmasdi. G'arbiy cherkovning rahbari papa edi. Rim yepiskopi ham uning uzi edi. (Sharqiy Yevropa nasroniylari Konstantinopolda qarorgohi bo'lgan boshqa rahbarga buysundilar).

Papa jahonning barcha burchaklaridagi cherkovlarning qudratli xodimlaridan iborat butun bir armiyani boshqarardi. Siyosat va cherkov ishlari borasida ularning nuqtai nazarlari bir-biriga to'g'ri kelmagan hollarda u bilan mahalliy podsholar o'rtasida janjal chiqardi. Angliyada qirol Genrix I arxiyepiskop Tomas Beketni, u papani ko'p qo'llab-quvvatlagani va qirolga deyarli bo'ysunmagani uchun, o'ldirish to'g'risida farmon berdi.

## **PRAVOSLAV CHERKOVI QACHON PAYDO BO'LGAN?**

X asr o'rtalarida nasroniyluk katolitsizm va pravoslaviyaga asta-sekin ajrala boshladi. 1054- yildan keyin, papa Lev IX Vizantiya imperiyasi cherkovini la'natlagach, pravoslaviya mustaqil yo'nalish sifatida butunlay ajralib chiqdi.

Avval boshdanoq pravoslaviyening yagona markazi bo'lmagan, chunki Vizantiyadagi cherkov hokimiyati imperiyaning eng katta viloyatlarida joylashgan to'rt patriarx o'rtasida taqsimlangandi. Bular — Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya (Yunon) va Quddus patriarxlari edi.

Vizantiya imperiyasi parchalanib ketgach, patriarxlarini har biri mustaqil pravoslav cherkovini boshqara boshladi.

Keyinchalik Yaqin sharq va Sharqiy Yevropadagi boshqa mamlakatlarda ham avtonom pravoslav cherkovlari vujudga keldi.

Pravoslav ta'limoti asosini muqaddas kitob (Bibliya) hamda muqaddas rivoyatlar (cherkov rahnamolari hamda dunyo nasroniylari yig'ini qarorlari) tashkil etadi.

Pravoslavlar ham, katoliklar singari, nasroniylarning asosiy aqidalarini e'tirof etishadi. Ular — Xudoning uch birlikdan iboratligi, xudoning gavdalanishi, istigfor, Iisus Xristning tirilishi va arshi a'loga ko'tarilishi.

Pravoslaviyening farqi esa kult shakllarida, shuningdek, ruhoniylarning jamiyatdagi holatidir. Pravoslav ruhoniylar oq (uylangan) va qora (uylanmaslik to'g'risida qasam ichgan) ruhoniylarga bo'linadi.

Pravoslaviyeda rasm-rusmlarni bajarishdagi o'ziga xoslik shundan iboratki, ruhoniylar Xudo va samoviy kuchlar bilan bevosita muloqotni ta'minlovchi vositachi, xolos. U, qavm kabi, oddiy odamdir.

Rim papasi esa Xudoning yerdagi noibi, binobarin, Xudo kabi topinish ob'yektidir.

Rus pravoslaviyesi uchun rasm-rusmlarga e'tiqod qilish — dinning kult bilan bog'liq tomonlarini muqaddaslashtirish xosdir. Kult dinning markaziy ob'yektiga aylanadi: har bir dindor ibodatxonaga muntazam qatnashi shart. Katoliklar esa, istaklariga ko'ra, istigfor aytishi, biroq muntazam ibodatda qatnashmasligi mumkin.

## **QADIMGI KELTLAR QAYERDA YASHASHGAN?**

Yevropada germanlar ko'payib ketishidan ancha avval u yerga keltlar kelgandi. Ularni gallar yoki galatlar deb atashgan. Kelt qabilalari Yevropa bo'ylab 3 ming yil avval tarqalgan. Temir asri o'rtalariga kelib, eramizdan avvalgi 600- yil bilan Rim imperiyasi vujudga kelgan davr o'rtasida ular Britaniyaga, Pireneya yarim oroliga, Galliyaga, Germaniyaning janubiga joylashdilar. Vaqt-vaqti bilan Italiyaga, Bolqonga va Kichik Osiyoga joylashdilar.

Keltlar abjir, lekin bemulohaza jangchilar bo'lishgan. Hunarmandlari esa mahorat ila yasalgan temir va bronza buyumlari bilan dong taratishgandi.

Kelt qirollarining varvarlarcha dabdaba bilan qurilgan saroylarida baxshilar qo'shiq va sehrgarlar hamda qahramonlar to'g'risidagi dostonlar bilan bazm ayshini surayotganlarni xushnud etishardi.

Kelt qabilalarining katta qismi asta-sekin Rim imperiyasiga bo'ysuna bordi va eramizdan avvalgi 100- yilga kelib Irlandiya (skotlar yashagan joy) va Shotlandiyaning shimoligiga (piktalar yashagan joy) mustaqilligicha qoldi.

## **BRITANIYA VA IRLANDIYA KELTLARI NIMASI BILAN FARQ QILARDI?**

Britaniyaning kelt aholisi Rim madaniyatidan bahramand bo'lgan chog'da Irlandiyadagi ularga qondosh qabilalar o'ziga xos kelt analariga sodiq qoldilar. Keltlarning o'z qirollari bo'lib, ular qal'a devorlari bilan o'rab olingan istehkomlardan turib mamlakatni boshqarishardi.

Vaqt-vaqti bilan skotlar Britaniyaning g'arbiy sohillari bo'ylab cho'zilgan Rim hududlariga qaroqchilarcha hujum qilib turishardi. Rim zaiflasha borgani sayin skotlarga omad kulib boqardi. Nihoyat, skotlar Uels va Shotlandiyada joylashib qola

boshladilar. Shotlandiya nomining o'zi irlandiyalik skott qabilalari nomidan kelib chiqqan. Qaroqchilarcha bosqinlardan biri paytida,— balki 410- yillar atrofidadir, Patrik ismli yosh nasroniy britt tutib olinib, qul qilib Irlandiyaga olib ketiladi. Keyinchalik Patrik qochishga erishdi, biroq 432- yilda u Irlandiyaga missioner sifatida qaytib keldi. U o'z safdoshlari bilan katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi va tez orada Irlandiyada nasroniylik qudratli kuchga aylandi.

Bu paytda Britaniyada majusiy anglosakslar siquvi ostida nasroniylik deyarli yo'qolib ketgandi. Ayni irlandiyaliklar yana u yerda nasroniylikni yoya boshlagandilar. Missionerlardan biri, irlandiyalik Kolubma 563- yilda Shotlandiyaning garbiy sohilidagi Ayona orolida monastirga asos soldi. Kelt nasroniyligi tezda tarqaldi. Kelt monaxlari va ularning angliyalik yangi yordamchilari G'arbiy Yevropa bo'ylab sayohatga chiqib, u yerlarda monastirlar qurdilar.